



ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 28.01.2022 г. № 300

между "HUDUDGAZTA'MINOT" AJ и Янгийул шахар хокимияти на общую сумму 7999860,00

Глава

018

Казначейский лицевой счёт

100022860274247011204018001

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4222000			
Январь	4 499 880,00			4 499 880,00
Февраль	3 499 980,00			3 499 980,00
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Всего за год	7 999 860,00			7 999 860,00

Всего 7999860,00 сум

Семь миллионов девятьсот девяносто девять тысяч восемьсот
шестьдесят сум 00 тийин
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы _____ сум или _____% *** от общей суммы договора
подлежат предоплате в _____ мес. 20 22 г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _____%, от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца.
(Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



М.П.

(подпись)

Мирзаев Фархад Камбарович
Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(подпись)

Нурматова Н.
Ф.И.О.

Принял работник казначейского
подразделения _____

(подпись)

Получил работник
заказчика _____

(подпись)

«___» _____ 20___ г.

«___» _____ 20___ г.

«HUDUDGAZ TOSHKENT»
gaz ta'minoti filiali

**TABIIY GAZNI ULGURJI
ISTE'MOLCHILARGA
ETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH
ShARTNOMASI**

№12- 04 / 300 -son

Iste'molchi nomi: Shayxovulov Davlatbek

Iste'molchining xos raqami 447000302

Faoliyat turi: biopneer

Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga etkazib berish va qabul qilish

ShARTNOMASI

2022 yil "18" yanvar №12- 04/300 -son Nuraifshon shaxar (shartnoma tuzilgan joy)

Nizom asosida faoliyat yurituvchi « Surveys waxop korxonasi (Iste'molchi nomi)(keyingi o'rnlarda "Iste'molchi" deb ataladi), rahbari Op. Surpazab

bir tomondan hamda Nizom va 2022 yil 5 yanvarda berilgan 03-19-11/41-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi "Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti filiali (gaz ta'minoti tashkiloti nomi)(keyingi o'rnlarda "Etkazib beruvchi" deb ataladi), rahbari M.R.AliEv ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

I.ShARTNOMA PREDMETI

1.1. Etkazib beruvchi o'z zimmasiga gaz tarmoqlari orqali Iste'molchining kelishilgan buyurtmanomasi bo'yicha tabiiy gaz (keyingi o'rnlarda gaz deb ataladi) etkazib berish majburiyatini oladi. Iste'molchi esa o'z zimmasiga ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan hajmda gazni qabul qilish majburiyatini oladi hamda to'lovlarni belgilangan narx bo'yicha o'z muddatida amalga oshiradi.

1.2. Etkazib beruvchi gazni ushbu shartnomaga va gazlashtirish loyihasiga muvofiq, gazdan foydalanish uchun standartlashtirilgan va sertifikatga ega gaz qurilmalari, shuningdek, elektron gazni hisoblash priborlari (keyingi o'rnlarda hisoblash priborlari deb ataladi) mavjud bo'lganda Etkazib beradi.

1.3. Iste'molchi Etkazib beruvchiga tasdiqlangan me'yorga (Tabiiy gazdan foydalanish qoidalarining 6-bandiga) asosan ishlab chiqariladigan mahsulotga (yoki ko'rsatilayotgan xizmat) nisbatan kelgusi yilda gazga asoslangan ehtiyojni taqdim etadi.

Iste'molchi joriy yilning 15 iyul kuniga qadar kelgusi yilda iste'mol qilinishi taxmin qilinayotgan gaz hajmi bo'yicha buyurtma beradi.

1.4. Iste'molchi bilan kelishilgan buyurtma bo'yicha etkazib beriladigan gaz hajmi texnik shartlarda belgilangan bosim va hajmda 2022 yilda 12/21 kub.m, narxi 4999,8 ming so'mni tashkil qiladi, jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

I chorak	12/21	mingkub.m.	yanvar	6818	fevral	5303	mart
II chorak	2	mingkub.m.	aprel	7	may	7	iyun
III chorak	2	ming kub.m.	iyul	7	avgust	7	sentabr
IV chorak	2	mingkub.m.	oktabr	7	noyabr	7	dekabr

Etkazib beruvchi tomondan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun magistral va gaz taqsimoti tarmoqlarining ishlashi izdan chiqqan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilarga 20 yilda zarur bo'lgan tabiiy gazning minimal hajmi ming kub metrim, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagini tashkil qiladi:

I chorak	2	mingkub.m.	yanvar	7	fevral	7	mart
II chorak	2	mingkub.m.	aprel	7	may	7	iyun
III chorak	2	ming kub.m.	iyul	7	avgust	7	sentabr
IV chorak	2	mingkub.m.	oktabr	7	noyabr	7	dekabr

1.5. Agar, Iste'molchi oylar bo'yicha bo'lingan buyurtmanomani taqdim etmasa, Etkazib beruvchi tomondan chorak uchun ajratilgan tabiiy gaz hajmi oylar bo'yicha bir xil miqdorda taqsimlanadi.

1.6. Etkazib beruvchi Iste'molchi buyurtmalarini tabiiy gaz resurslarining va gazni taqsimlashning tasdiqlangan balansiga muvofiq ajratilgan hajmlar doirasida qayta ko'rib chiqishi mumkin. Iste'molchi tomondan navbatdagi oy (chorak) uchun ko'rsatilgan tabiiy gaz hajmlari o'zgarishi bo'yicha 10 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotiga xabar bergan taqdirda, bunday holat ortiqcha olingan gaz miqdori deb hisoblanmaydi.

II. GAZNI ETKAZIB BERISH ShARTLARI

2.1. Gaz ushbu shartnomada qayd etilgan (1.4-band) muddatlarda va hajmlarda hamda GOST 5542-2014 (Sanoat va kommunal foydalanish uchun tabiiy yonuvchi gazlar) ga muvofiq tarzda tabiiy gazni Etkazib beriladi.

2.2. Iste'molchi Etkazib beruvchidan ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlariga asosan joriy oy uchun gaz iste'molining sukkalik me'yori doirasida gaz qabul qilib oladi, shuningdek, oy oxirida tuzilgan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

2.3. Etkazib beruvchi Iste'molchiga 24 soat ichida gaz etkazib berish va qabul qilish tartibi va shartlari o'zgariganligi to'g'risida barcha usullar orqali Iste'molchini xabardor qilishi shart.

Etkazib beruvchining avariya-dispatcher xizmatlari telefon raqamlari:

Iste'molchi manzili va telefon raqami:

98 113007
Surveys waxop W. Pannopol byi

2.4. Etkazib beruvchi Iste'molchini gaz etkazib berish qisqartirilishiga qadar kamida 24 soat avval bu haqida xabardor qilishi shart, magistral gaz quvurlarida yuz bergan holatlari bundan mustasno. Iste'molchi xabardor qilingandan keyin gaz etkazib berish darhol qisqartiriladi yoki to'xtatiladi.

2.5. Magistr va taqsimlovchi gaz quvurlarining texnologik ish rejimlari buzilganda, shuningdek, kuz-qish mavsumida ijtimoiy soha ob'ektlarini va aholi istemohlarini bir maromda tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida Etkazib beruvchi, Iste'molchini ogohlantirgan holda gaz etkazib berishni cheklash yoki to'xtatib qo'yish huquqiga ega, Iste'molchi esa zaxira yoqilg'i turidan foydalanishga o'tadi.

2.6. Iste'molchi etkazib beruvchi bilan gaz etkazib berish-qabul qilish doirasida tezkor ma'lumotlarni muntazam almashishni ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

2.7. Iste'molchi zaxira yoqilg'i turidan foydalanishni ko'zda tutishi va uni Etlarli miqdorda (3 oydan kam bo'lmagan muddatga) shakllantirishi shart. Iste'molchi Etkazib beruvchining asoslangan talabi bilan tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq zaxira yoqilg'iga o'tishi va gazdan foydalanishni to'xtatishi lozim. Gaz etkazib berishning to'xtatilishi tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

2.8. Iste'molchi o'ziga tegishli bo'lgan gaz tarmoqlari va ularda o'rnatilgan uskunalar, GTP (gaz taqsimlash punkti), gazdan foydalanish uskunalaridan soz holda foydalanish, ularga xizmat ko'rsatish hamda saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

2.9. Iste'molchining qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalari o'rnatilishi, rekonstruksiya qilinishi yoki ta'mirlanishi oqibatida gaz sarflash hajmi o'zgarishiga olib kelgan hollarda Iste'molchi, Etkazib beruvchidan qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalari o'rnatish yoki rekonstruksiya qilishga texnik shartlarni olishi shart. Gaz tarmoqlariga ulanish Tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.10. Iste'molchi yoki Etkazib beruvchining to'lov rekvizitlari o'zgarigan holatlarda ular zudlik bilan bir-birini bu haqida xabardor qilishi shart.

2.11. Tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, taqsimlash va iste'mol qilish rejimining yagona uzluksiz texnologik jarayonini hisobga olib, tabiiy gazni ishlab chiqaruvchi va Etkazib beruvchining talablarini bajarish, Iste'molchilar uchun majburiy hisoblanadi.

III. ETKAZIB BERILGAN GAZNI HISOBGA OLISHNI TASHKIL ETISH

3.1. Gazni hisobga olmasdan etkazib berishga yo'l qo'yilmaydi.

3.2. Etkazib berilgan gaz miqdori gaz tarmoqlari bo'linishi chegarasida o'rnatilgan hisoblash priborlari ko'rsatkichlari yoki o'lchash kompleksi bo'yicha aniqlanadi hamda har ikki tomon imzolaydigan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasi (Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmog'ining boshlanishi hisoblanib) Etkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi, tegishligi bo'yicha aniqlanadigan gaz tarmog'i bo'linishi nuqtasi hisoblanadi va unda hisoblash priborlari o'rnatilishi shart.

3.3. Birlik miqdori standart sharoitda 1 m^3 gaz olinadi: xarorat 20°C , bosim $101,325 \text{ kPa}$ (760 mmHg) (GOST 2939-63 1.1-bandiga asosan). Gaz hajmi gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitda, azot va karbonat angidrid) qiymatlari bo'yicha tuzatiladi.

Gaz miqdori "O'zstandart" agentligining me'yoriy-xuquqiy hujjatlari talablariga muvofiq gaz miqdorini standart sharoitga avtomatik ravishda keltiradigan gazni hisoblash priborlari yordamida aniqlanadi.

3.4. Etkazib beruvchining yoki Iste'molchining balansida bo'lgan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi uning mulki hisoblanadi.

3.5. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi tanlovi tegishli qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshiriladi va Etkazib beruvchi bilan kelishiladi. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TGHNAT-ASKUG) lariga ulanishi lozim.

3.6. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksini o'rnatish va ishlatish amaldagi qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

3.7. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksi egasi uni ishlatish davomida O'z DST 8.030:2008 "Yoqilg'i va energiya. Hisobga qo'yiladigan umumiy talablar", O'z DST 8.031:2008 "Yoqilg'i va energiya. O'lchash priborlari bilan jixozlash va ularni ishlatish" davlat standartlari talablariga, shuningdek o'lchash priborlari ishlab chiqaruvchining talablariga rioya qilish.

3.8. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarining metrologik va texnik tavsiflari amaldagi me'yorlar va qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

3.9. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari "O'zstandart" agentligining joriy qiyoslov ko'rigidan o'tkazilgan sertifikat va/yoki metrologik attestatsiyasiga ega bo'lishi kerak. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarining qiyoslov ko'rikdan va/yoki metrologik attestatsiyasidan o'tish davrini "O'zstandart" agentligi belgilaydi.

Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari egasi gaz o'lchash priborlarini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/yoki o'lchov komplekslarini (va uning tarkibiy qismlarini) "O'zstandart" agentligida metrologik attestatsiyadan o'tkazishning o'z vaqtida bajarilishi uchun mas'uldir.

3.10. Rejalashtirilgan ishlarning bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalibrash, torayish moslamasini almashirish, ta'mirlash) gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish va o'rnatish texnik va/yoki ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va qoidalariga muvofiq egasi (yoki uning servisi xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

3.11. Rejalashtirilgan ishlarning bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalibrash, toraytirish moslamasini almashirish, ta'mirlash) gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish va o'rnatish texnik va/yoki ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va qoidalariga muvofiq egasi (yoki uning servisi xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

Etkazib beruvchining vakilini gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksining egasi chaqiradi.

3.12. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarini modernizatsiya qilish, gaz o'lchash priborlarini almashirish, gazni o'lchashning boshqa usullarini tanlash masalalari Etkazib beruvchi bilan kelishiladi.

3.13. Gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitdagi zichlik, azot va karbonat angidrid) gaz o'lchash priborining konfiguratsiyasiga kiritiladi.

Gaz o'lash piborining egasi gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida gaz o'lash piborini konfiguratsiyasiga kiritishni ta'minlaydi. Etkazib beruvchi, Iste'molchiga gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida etkazib berilishini ta'minlaydi.

3.14. Etkazib beruvchi o'zining tamg'alarini gaz o'lash piborlariga va/yoki o'lash kompleksining gaz hajmini o'lashga ta'sir qiladigan qismlariga Iste'molchi ishtirokida o'rnatadi va tegishli dalolatnoma tuziladi. O'rnatilgan tamg'alarni butligiga Iste'molchi javobgardir.

3.15. Etkazib beruvchi Iste'molchining gaz o'lash piborlari va/yoki o'lash komplekslari va ularning tarkibiy qismlarining to'g'ri ishlashini kuzatish xuquqiga ega. Shu bilan birga, Iste'molchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Etkazib beruvchi vakillarining o'lash piborlari va/yoki o'lash komplekslariga to'siqsiz kirishini ta'minlaydi.

3.16. O'z DSt 8.586.(1-5)-2005 bo'yicha o'lash kompleks va o'lash piborlari ishida g'ayritabiiy holatlar yuzaga kelgan taqdirda O'z DSt 8.064:2017 bo'yicha gazning miqdori hisoblanadi (korrektirovka). O'lash qurilmasi va /yoki o'lash kompleks faoliyatiga ruxsatsiz aralashish holatlari bundan mustasno.

3.17. Olingan gaz uchun hisob-kitob, quyidagi hollarda tamg'alanmagan gazdan foydalanish uskunasi 24 soat davomida ishlab turishi hisob-kitobidan amalga oshiriladi:

a) gazni hisobga olmagan holda gaz iste'moli - gazni hisoblash pibori va gazni sarf qilish normasi bo'lmagan, gazni hisoblash piborini chetlab o'tgan holda iste'mol qilish (noqonuniy baypas liniyalari ulangan) oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan aniqqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

b) hisobga olish piborini ulash tartibi va sxemasi o'zgartirilgan - oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

v) hisobga olish pibori buzilgan (hisobga olish pibori buzilganligini tasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lganda) - shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarini inobatga olgan holda bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

g) hisobga olish pibori mavjud bo'lmagan - qiyoslov ko'rigidan o'tkazish uchun Echlilgan - hisobga olish pibori echlilgan kundan "O'zstandart" agentligidan qiyoslovdan o'tkazilib, sertifikat olinib joyiga o'rnatilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

d) hisobga olish piborini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/yoki o'lash kompleksini metrologik attestatsiyadan o'tkazish muddati tugagan - qiyoslov ko'rigidan metrologik attestatsiya o'tkazish muddati tugagan kundan qiyoslov ko'rigidan yoki metrologik attestatsiya o'tkazish uchun Echlilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

e) hisobga olish pibori yoki o'lash kompleksining qismlariga o'rnatilgan tamg'alarning butligi buzilgan - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab, lekin bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

j) hisobga olish piborini o'z boshimchalik echib qo'yilgan - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqqlangan kungacha bo'lgan vaqtga;

z) gazni tarqatish tarmoqlarining texnologik rejimini buzadigan gaz quvurlarida yoki GTPlarida asbob-uskunalar o'rnatilgan - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqqlangan kungacha bo'lgan vaqtga;

i) Gaz hisoblash uskunasi konfiguratsiyalariga noqonuniy tarzda tashqi ta'sir ko'rsatgan holda tabiiy gazni iste'mol qilish holatlari aniqqlangan - tashqi ta'sir ko'rsatilgan kundan boshlab (agar aralashuv kunini va faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa), biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga;

k) hisobga olish piborining xotirasida saqlanadigan arxiv ma'lumotlarini yo'qotish, gaz o'lashni avtomatlashtirilgan tizimidan hisobot o'yida ma'lumotlar olish imkonini bo'lmagan yoki Etkazib beruvchining operativ jurnallaridan olingan ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda. (Hisob-kitob uchun TGHNAT (ASKUG) tizimi joriy qilingan iste'molchilarda hisobot davri uchun arxiv ma'lumotlari mavjud bo'lmagan hollarda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar TGHNAT tizimida qayd etilgan ma'lumotlardan olinadi);

l) gaz iste'moli hajmlari hisobga olish piborining ruxsat etilgan maksimal o'lash chegarasidan ortiqcha bo'lganda, plombalanmagan gaz jihozlaridan foydalanilgan gaz uchun hisob-kitoblar oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, xatlov dalolatnomasi mavjud bo'lmagan es - gaz ta'minoti tashkiloti vakili tomonidan ohirgi marta borib ko'rilgan kundan amalga oshiriladi;

m) gazlashtirish xujjatlarini rasmiylashtirmasdan iste'molchi tomonidan qo'shimcha gaz qurilmasi o'rnatish holati aniqqlangan (qo'shimcha gaz anjomlarini o'rnatib olib foydalanayotganlik fakti bo'yicha asoslantiruvchi hujjatlar mavjud bo'lganida) - bir hisob-kitob davriga;

3.18. Iste'molchining hisobga olish pibori gaz hajmini pastki chegarasi ostida sarflaganda, gaz hajmi hisobga olish pibori va/yoki o'lash kompleksining me'yoriy-texnik xujjatlarida ko'rsatilgan o'lashning pastki chegarasida olinadi.

3.19. Etkazib beruvchi tomonidan etkazib beriladigan gaz hajmining ishonchililigi ta'sir ko'rsatuvchi o'lash komplekslari va hisoblash piborlarining ishlashi buzilgan holatlar aniqqlangan, Etkazib beruvchi "O'zstandart" agentligi bo'limlarida o'lash komplekslari va gazni hisoblash piborlarini ekspertizadan o'tkazishni talab qilish huquqiga ega.

Agar o'lash komplekslari va hisoblash piborlari nosoz bo'lsa, ekspertizadan o'tkazganlik uchun to'lovlar Iste'molchi tomonidan, soz holatda bo'lganda esa - ekspertiza o'tkazilishi talab qilgan Taraf tomonidan amalga oshiriladi.

3.20. Agar hisobga olish pibori ishdan chiqqandayoki hisobga olish piboridan gaz sizib chiqish holatlari aniqqlangan taqdirda Iste'molchi 24 soat ichida Etkazib beruvchiga bu haqda xabar berishi shart. Shuningdek korxonadagi gaz ishladigan asbob-uskunalarini ishlash grafisini tuzishi va ishlamaydigan gaz asbob-uskunalarini Etkazib beruvchi bilan birgalikda o'chirib tamg'alanishini ta'minlashi shart.

3.21. Hisobga olish piborlarida gaz sizib chiqish xolati aniqlangan taqdirda qayta hisob-kitoblar ohirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrda amalga oshiriladi. (O'z DSt 8.586 ga ko'ra gazni aniqlash tizimlari germetik holatda bo'lishi kerak).

IV. ETKAZIB BERILGAN GAZ UCHUN HISOB-KITOBNI

AMALGA OSHIRISH

4.1. Iste'molchi mazkur shartnoma asosida etkazib berilgan gaz uchun to'lovni amalga oshirishi shart.

4.2. Gaz uchun narxlar O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

4.3. Iste'molchi hisob-kitob qilish davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin Etkazib beruvchining hisob raqamiga ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarida ko'rsatilgan oylik gaz hajmi qiymatining 100 foiz summasini oldindan to'laydi.

Hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste'molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib etkazib berilgan tabiiy gaz uchun 50 foiz oldindan haq to'lash asosida hisob-kitob qilish to'g'risida Etkazib beruvchiga bildirgi tartibida murojaat qilishga haqlidir. Bunday holatlarda iste'molchilar hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin, gaz ta'minoti tashkilotining hisob raqamiga tabiiy gaz etkazib berishga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan oylik tabiiy gaz hajmi qiymati summasi 50 foiz miqdorida oldindan haq to'lashlari shart. Amalda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmi uchun yakuniy hisob-kitob, hisobot oyining oxirigacha amalga oshiriladi.

4.4. Iste'molchiga gaz oldindan to'lovsiz etkazib berilmaydi.

4.5. Oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, Iste'molchiga gaz etkazib berilmaydi (strategik korxonalar va ijtimoiy ahamiyatga ega iste'molchilar bundan mustasno).

4.6. Iste'molchi har oyning 10 sanasiga qadar avvalgi oyda iste'mol qilingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshirishi kerak.

4.7. Strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilar hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 30 kun mobaynida olingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradilar.

4.8. Tabiiy gazdan foydalanishda Iste'molchining aybi bilan tabiiy gaz etkazib berishga shartnomada ko'rsatilganidan hajmdan kam foydalanilgan taqdirda, avans tarzida to'langan mablag'lar qaytarilmaydi, ko'rsatib o'tilgan mablag'lar esa kelgusida gazdan foydalanishda hisobga olinadi.

4.9. Iste'molchi tomonidan tabiiy gaz etkazib berish uchun tuzilgan shartnomada belgilanganidan ko'p hajmda va gaz ta'minoti tashkiloti bilan oldindan kelishilmasdan gaz olingan taqdirda, Iste'molchidan shartnomadagi hajmlardan ortiqcha olingan tabiiy gaz qiymatiga nisbatan 1,4 ko'effitsient bilan oshirilgan to'lov undiriladi.

Bunda, belgilangan tartibda hisoblash priborini almashirish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish, tekshirish va sozligini monitoring qilish uchun echib olish, shuningdek, Iste'molchiga aloqador bo'lmagan turli hil (elektr ta'minoti nosozligi, chaqmoq, qisqa tutashuv va x.k.)dagi texnik nosozliklar aniqlanganligi sababli, iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmini o'rnatilgan gaz asbob uskunalarini to'liq quvvati bo'yicha hisob-kitob qilinishi natijasida shartnomadagi hajmlardan ortiq hajmlarni tashkil qilgan holatlar bundan mustasno.

4.10. Tabiiy gaz uchun Iste'molchining qarzi mavjud bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari, Iste'molchini xabardor qilgan holda qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi sifatida hisobga olinmaydi.

4.11. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz qiymati o'z vaqtida to'lanmaganda, Iste'molchi muddati o'tigan har bir kun uchun muddati o'tigan to'lov summasi 0,4 foiz miqdorida, lekin muddati o'tigan to'lov summasi 50 foizdan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.12. Hisob-kitob oyida etkazib berilgan tabiiy gaz hajmi Etkazib beruvchi vakillari tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priboridan ko'rsatkichlarni yozib olish (TGHNATga ulangan, shuningdek, tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlariga ega bo'lmagan va belgilangan me'yorlar bo'yicha hisob-kitob qiladigan iste'molchilar bundan mustasno) asosida, keyinchalik yozib olingan ko'rsatkichlar «Askugyur» tizimiga kiritish, shuningdek, iste'molchilar tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini interaktiv xizmatlar vositalaridan foydalanigan holda kiritish orqali aniqlanadi.

4.13. Shartnomaning 4.12-bandiga asosan ko'rsatkich olinganidan so'ng keyingi oyning 5 kuniga qadar Etkazib beruvchi tomonidan hisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Rasmiylashtirilgan gaz Etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan iste'molchiga elektron hisobvaraq-faktura yuboriladi.

4.14. Etkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi hisob-kitoblarning haqoniyligini ta'minlash uchun hisobot davrida gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi Iste'molchida quyidagi texnik hujjatlar mavjud bo'lganda rasmiylashtiriladi:

a) gazni hisoblash pribori hoirasidan hisobot davri uchun olingan (ko'chirma) arxiv ma'lumotlari;

b) Iste'molchiga taqdim etiladigan, Iste'molchining bo'linish chegarasigacha bo'lgan joydagi gaz tarmoqlari va GTQlardagi texnologik yo'qotishlarning hajmi to'g'risidagi dalolatnomaning mavjudligi; Bunda Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmoqlari va GTQdagi texnologik yo'qotishlar Iste'molchi hisobiga olib boriladi.

4.15. Iste'molchi oyning 7 kunidan kechiktirmasdan Etkazib beruvchidan xisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini qabul qilib oladi, imzolaydi va bir nusxasini Etkazib beruvchiga jo'natadi. Rasmiylashtirilgan gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan elektron hisobvaraq-fakturani qabul qiladi.

4.16. Tabiiy gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasini imzolamaslik yoki uni e'tirozlar bilan imzolash Iste'molchini ko'rsatib o'tilgan tabiiy gaz hajmlari uchun to'lovlardan ozod qilmaydi. Uzatilgan yoki qabul qilingan gaz miqdorini aniqlashdan norozi bo'lgan tomon dalolatnomada norozilik sabablarini majburiy aks ettirish yo'li bilan hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 10-kungacha boshqa tomonga bu to'g'rida ma'lum qilib, so'ng dalolatnomaning bir nusxasini Etkazib beruvchi vakiliga taqdim qiladi. Ushbu masalani o'zaro hal etish imkoniyati bo'lmaganda, kelishmovchilik sabablari belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

4.17. Iste'molchidan debitor qarzlarni undirish, Etkazib beruvchi tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.18. Gaz uzib qo'yilganidan so'ng o'zboshimchalik bilan qayta ulangan, iste'mol qilingan gaz hajmi va uning qiymati gaz uzib qo'yilgan kundan boshlab, ulangan gazdan foydalanish uskunasi bir sutkada 24 soat ichida to'liq quvvat bilan ishlab turishi hisobidan aniqlanadi.

4.19. Gaz uchun amaldagi tariflar (narxlar) o'zgargan taqdirda, Etkazib beruvchi bu haqidagi axborotni o'n besh kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi. Gaz uchun tariflar o'zgarganida, mazkur shartnoma o'z kuchida qoladi, iste'mol qilingan gaz uchun to'lov esa yangi tarif asosida, u qonunda belgilangan tartibda kuchga kirganidan so'ng amalga oshiriladi. Bunda iste'molchi tabiiy gazning avans tariqasida to'langan hajmi uchun to'lov kunidan boshlab ko'pi bilan keyingi 1 oy qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod qilinadi.

V. HUQUQBUZARLIKLAR VA GAZDAN NOQONUNIY FOYDALANISH UCHUN JAVOBGARLIK

5.1. Gazdan foydalanishda Iste'molchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandida ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilishi, Etkazib beruvchi va

Iste'molchi vakillari tomonidan imzolangan va ikki nusxada tuziladigan dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

5.2. Ushbu shartnomaning 5.1-bandiga asosan rasmiylashtirilgan dalolatnomaga muvofiq iste'molchidan, foydalanigan gaz hajmi qiymati (amaldagi tariflar bo'yicha) undirib olinadi.

5.3. Bunda mazkur shartnomaning 5.2-bandida ko'rsatilgan holatlarda gaz hajmi qiymatining undirilishi iste'molchini qonunchilikda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

VI. TARMOQDAN UZIB QO'YISH VA QAYTA

ULANISH TARTIBI

6.1. Iste'molchida quyidagi holatlarning mavjudligi hamda ushbu holatlarning bartaraf etilguniga qadar gaz tarmoqlaridan uzib qo'yiladi:

- shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganda;
- Etkazib beruvchi vakillarini gazdan foydalanish uskunalari va hisobga olish qurilmalarini nazoratdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaganda;
- foydalanilgan gaz uchun hisob-kitob o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi natijasida qarzdorlik mavjud bo'lganda;
- shartnomada belgilangan buyurtmalarga etarli miqdorda oldindan to'lovlar amalga oshirilmaganda;

- Etkazib beruvchining va "O'zneftgazinspeksiya"ning ko'rsatmalari bajarilmaganda;

- hisoblash priborlariga qasddan zarar etkazilganda, pribor ko'rsatgichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi xatti-harakatlar amalga oshirilgan holatlarda;

- gazni hisobga olish priborlariga tashqi ta'sir ko'rsatishga harakat qilish;

- Gazdan foydalanish qoidalariga zid ravishda gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish yoki boshqa qoidabuzarliklar yohud gazni talon-taroj qilish holatlari aniqlanganda;

Bunda Etkazib beruvchi, gaz ta'minotining o'chirilishi natijasida Etkazilgan moddiy zarar yoki boy berilgan foyda uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.2. Tarmoqqa qayta ulanishda amaldagi qonunchilikka muvofiq iste'molchidan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida haq undiriladi. Shartnomaning 13.1.-bandida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

6.3. Gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TGHNAT) lariga ulangan iste'molchilarni masofadan qayta ulash uchun haq undirilmaydi.

VII. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

7.1. Etkazib beruvchi quyidagilarga majbur:

- o'ziga qarashli bo'lgan gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularni o'z hisobidan ta'mirlash-tiklash;
- o'ziga qarashli gaz tarmoqlarining texnik holatini va ularda ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun davriy ko'zdan kechirish;
- tabiiy gaz etkazib berish qisqargan yoki to'xtagan taqdirda bu to'g'rida iste'molchilarni xabardor qilish;

- gaz hisoblash uskunalaridan olingan arxiv ma'lumotlarni, elektron ma'lumotlarning barcha parametrlarini kamida uch yil mobaynida o'zida saqlanishini ta'minlash;

- shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandlariga ko'rsatilgan holatlar sodir etilganligi va ushbu holatlarni bartaraf etilguniga qadar tabiiy gaz ta'minotini qo'shimcha ogohlantirishlarsiz tarmoqdan o'chirish;

- tabiiy gazning ruxsatsiz iste'mol qilinganligi, gaz tarmoqlari moddiy boyliklarining talon-taroj qilinganligi to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilish;

- Iste'molchiga gaz Etkazib berish shartnomasida kelishilgan shartlar asosida gazni Etkazib berish;

- qonunda nazarda tutilgan tartibda monopoliyaga qarshi davlat organining taqdimnomasiga asosan shartnomaga o'zgartirishlar kiritish;

- Etkazib beruvchi va vakolatli davlat organlarining majburiy ko'rsatmalarini bajarish;

- texnik xizmat ko'rsatish shartnomalariga muvofiq iste'molchilarning ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalari texnik taftishdan o'tkazish va ularga profilaktika xizmat ko'rsatish;

- tabiiy gaz sizib chiqishida — darhol;

- ovqat tayyorlash uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida — bir kun davomida;

- isitish mavsumida isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida — bir kun davomida;

- issiq suv va isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida (isitish mavsumidan tashqari vaqtda) — ikki kun davomida;

- Gazdan foydalanish uskunalari 5 sutka muddat ichida almashtirish;

Etkazib beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.2. Etkazib beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- texnik zaruratga ko'ra, iste'molchini belgilangan tartibda xabardor qilgan holda, tabiiy gazni Etkazib berishni qisqartirish yoki to'xtatish;

- gaz ta'minoti tarmoqlariga ruxsatsiz ulanish holatlari aniqlanganda ularni belgilangan tartibda gaz tarmog'idan uzib qo'yish;

- Iste'molchilardan tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini va gazni Etkazib berish shartnomasini talablariga rioya etishni talab qilish;

- tabiiy gazni Etkazib berish shartnomasini ijro qilishdan qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama voz kechish;

- gaz tarmoqlarida avariyaning oldini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ko'rish zarurati yuzaga kelganda, Iste'molchi bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan hamda zudlik bilan xabardor qilgan holda, tabiiy gazni etkazib berishni to'xtatish yoki cheklash;

- ushbu shartnomada nazarda tutilgan xolatlarda, aniqlangan qoidabuzarliklar

bartaraf etilguniga qadar avvaldan ogohlantirmagan holda gaz etkazib berishni to'xtatish.

- tabiiy gaz etkazib berish shartnomasini bir tomonlama bekor qilish.

7.3. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

- hisobot oyida tabiiy gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini va hisob-varaqasini rasmiylashtirish uchun har oyning 5-sanasigacha Etkazib beruvchiga elektron gaz hisobdonini arxiv ma'lumotlari (raspechatka) yoki gazni hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini taqdim etish.

- Ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalarini texnik taffishdan o'tkazish va ularga profilaktika xizmati ko'rsatish uchun Etkazib beruvchi bilan tasdiqlangan tariflar bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnoma tuzadi.

- Iste'molchi bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomada ko'rsatilgan rekvizitga asosan Etkazib beruvchiga 100 foiz to'lov amalga oshiradi.

- gazdan oqilona va tejankorlik bilan foydalanish;

- gaz xo'jaligi gaz quvurlari va uskunalarini texnik jihatdan soz holatda saqlash;

- gaz tarmoqlarida yoki gazdan foydalanish uskunasi vujudga kelgan tabiiy gaz sizib chiqishi holati haqida gaz ta'minoti tashkiloti dispetcherlik xizmatlarini zudlik bilan xabardor qilish;

- o'zining gaz tarmoqlari daxlsizligini ta'minlash va ehtimoli bo'lgan ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash maqsadida ularni va ulardagi uskunalarini muntazam ravishda ko'zdan kechirib chiqish;

- gaz ta'minoti tashkilotlari gaz tarmoqlariga sertifikatlangan, gazlashtirish loyihasiga (LTH) muvofiq bo'lmagan gazdan foydalanish uskunasi ulanishiga yo'l qo'ymaslik;

- gaz Etkazib beruvchi vakillari va "O'znetgazinspeksiya" xodimlarining (tegishli guvohnoma ko'rsatilgan taqdirda) tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlarini va/yoki gazdan foydalanish uskunasi kunning istalgan vaqtida erkin ko'zdan kechirishini ta'minlash;

- gazdan foydalanish uskunasi dagi nosozliklarni (bunday turdagi ishlarni bajarish huquqiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan brigadalar yoki xodim yordamida) bartaraf etish;

- tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi harakatlarni amalga oshirmaslik, ularning qasddan buzilishiga yo'l qo'ymaslik va o'rnatilgan tamg'alarining butunligini ta'minlash;

- tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ishidagi nosozlik aniqlangan taqdirda, gaz ta'minoti tashkilotini o'zi uchun qulay shaklda darhol xabardor qilish.

- Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasida tabiiy gaz sarfi bo'yicha ma'lumotlarni masofadan olish imkoniyatini beruvchi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan (TGHNAT-ASKUG)izimiga ulangan hisoblash priborlari Iste'molchi tomonidan o'rnatish.

7.4. Iste'molchi Etkazib beruvchidan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:

- Etkazib berilgan tabiiy gazning aniqlangan hajmiga va boshqa parametrlarga norozi bo'lgan taqdirda, Etkazib beruvchining tabiiy gazni iste'molini hisobga olish priborlari ishlashining ishonchligini tekshirish uchun komissiya tashkil etish;

- tabiiy gazning standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarda ko'zda tutilgan sifatda va Etkazib berish rejimiga rioya qilgan holda uzatilishi;

- tabiiy gazni etkazib berish shartnomasi bekor qilinganda, foydalanilmagan gaz

hajmi uchun to'langan summani qaytarish;

- tabiiy gazni etkazib berish shartnomasini qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama bekor qilish;

- tabiiy gazni etkazib berish to'xtatilganda, zararni qoplashni talab qilish (shartnomaning 2.5. va 6.1. bandlari bundan mustasno);

- gaz etkazib berishni vaqtincha to'xtatishni.

Iste'molchi konunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

VIII. TARAFLARNING MODDIY JAVOBGARLIGI

8.1. Etkazib beruvchiliste'molchiga gaz etkazib berish shartnomasiga asosan gaz etkazib berilmagan yoki to'liq etkazib berilmaganligi oqibatida etkazilgan moddiy zarar va boy berilgan foydani belgilangan tartibda qoplaydi.

Etkazib beruvchi gazni etkazib bermaganlik yoki to'liq etkazib bermaganlik uchun quyidagi hollarda javobgar hisoblanmaydi:

- a) Iste'molchi tomonidan gaz ta'minoti tarmoqlariga qo'shimcha gazdan foydalanish uskunasi ruxsatsiz ulash holati aniqlanganda;

- b) foydalanilgan gaz uchun to'lov amalga oshirilmaganida;

- v) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda.

- g) iste'molchi tomonidan shartnoma talablariga amal qilinmaganida;

- d) mazkur shartnomaning 2.5. va 6.1.bandlarida ko'rsatilgan hollarda.

8.2. Etkazib beruvchi tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligi natijasida Iste'molchiga moddiy zarar etkazilganda, Etkazib beruvchining mansabdor shaxsiga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining o'n barobaridan o'n besh baravari miqdorida jarima qo'llanadi.

8.3. Shartnomada ko'rsatilgan hajmdan kam hajmda gaz etkazib berilgan taqdirda, Etkazib beruvchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining"Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida jarima sanksiyalari qo'llaniladi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

- a) fors-major holatlar;

- b) magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida avariya holatlari yuz berganda;

- v) qish davrida vaqtincha gaz etkazib berish cheklanganida (O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari qarorlari bilan tasdiqlangan gaz etkazib berish tarmog'idan uzib

qo'yilmaydigan ob'ektlar ro'yxatiga kiritilgan korxonalaridan tashqari);

g) shartnoma asosida Iste'molchi tomonidan o'z zimmasiga olingan majburiyatlar bajarilmaganda.

8.4. Etkazib berilgan tabiiy gazning sifati shartnoma yoki normativ hujjatlar talablariga mos kelmaganda, Iste'molchi gaz qabul qilish yoki uning uchun haq to'lashni rad etganda Etkazib beruvchidan etkazib berilgan sifati zarur darajada bo'lmagan gaz hajmi qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'lashni talab qilish huquqiga ega. Agar, gaz qiymati to'langan bo'lsa, Iste'molchi Etkazib beruvchidan belgilangan tartibda to'langan summani qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

8.5. Etkazib beruvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan hajmlardan kam gaz etkazib berilganda, Etkazib beruvchi Iste'molchiga muddati o'tgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan summasining 0,5 foizi miqdorida, biroq Etkazib berilmagan gaz qiymatining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

8.6. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz haqi o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan, miqdorda penya to'laydi.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

9.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korruptsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalariga oid shartlarni va talablarni tadbir etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

9.2. "Iste'molchi" "Etkazib beruvchi"ga mazkur shartnoma doirasida quyidagilarni kafolatlaydi va quyidagi majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi: Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "Etkazib beruvchi"ning korruptsiyaga qarshi amaldagi talablariga va O'zbekiston Respublikasining barcha qonun va qoidalariga qat'iy rioya qiladi.

X. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar qoidaga ko'ra, ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

10.2. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni hal etish uchun taraflar belgilangan tartibda javobgar joylashgan joydagi tegishli sudga murojaat qilishga haqlidir.

10.3. Shartnoma shartlarini bir tomonlama rad etish va bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno.

XI. FORS-MAJOR HOLATLAR

11.1. Tomonlar:

a) tabiiy ofatlar;

b) magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida, gazni qayta ishlash korxonalari va gaz qazib chiqarish joylarida kutilmagan avariya vaziyatlari yuzaga kelganda, shuningdek Engib bo'lmas kuchlar tufayli sodir bo'lgan tabiiy ofatlar, xususan, sel, yomg'ir, suv toshqini, yong'in chiqishi, er qimirlashi, virus tarqalishi va pandemiya davrida hamda Hukumat qaroriga asosan taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarish imkoni bo'lmay qolganda javobgarlikka jalb etilmasdan, gaz Etkazib berishni to'xtatish, qisqartirish yoki munosabtlarni to'xtatish huquqiga ega bo'ladilar.

11.2. Fors-majior holatlar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar har qanday aloqa vositasi yordamida bir-birini xabardor qilishi kerak.

11.3. Agar, ko'rsatilgan holatlar 90 kundan ortiq kun mobaynida saqlanib tursa, tomonlar muzokaralar yo'li bilan shartnomani kelgusida bajarish to'g'risidagi qaror qabul qiladilar.

XII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

12.1. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda hamda taraflar tomonidan imzolanishi kerak.

12.2. Budget tashkilotlari uchun shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevralidagi PQ-594-son qaroriga asosan G'aznachilik bo'limi tomonidan majburiy tartibda ro'yhatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

12.3. Shartnoma 2022 yil 31 dekabr gacha bo'lgan muddatga tuzilgan. Shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi.

Budjet tashkilotlari uchun shartnoma bir yilga tuziladi, shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi. Budjetdan mablag' oluvchilar har yili 2022 yil 31 dekabr sanasiga amal qilishlari lozim.

12.4. Tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha da'volari da'vo qabul qilingan kundan boshlab 30 kun mobaynida ko'rib chiqiladi.

XIII. YaKUNLOVChI QOIDALAR

13.1. Ushbu shartnoma tomonlarning har biri uchun uch nusxada tuzilgan, uchta nusxasi ham bir hil yuridik kuchga ega.

XIV. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA MANZILI:

«ETKAZIB BERUVCHI «Xududgazta 'minot» AJ «Xududgaz Toshkent» filiali 100115, Toshkent Viloyati, Nurafshon shaxri, Sport kuchasi 37-A uy Manzil: Tel./faks: (78) 150-31-30, (78) 150-30-95 Bank nomi: «Uzsanoatqurilishbank» Rakat f-li MFO: 00435 INN: 306605769 OKED: 35220 X/R: 2263400605.113960447	«ISTE'MOLCHI» <i>Suvrayev maxop</i> <i>Doniyorovich</i> (budjet tashkilotlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar nomi) Pochta manzili: <i>Suvrayev maxop</i> OKPO kodi: <i>27373485</i> OKED: <i>84112</i> Muloqot telefoni: _____ G'az./h <i>2340200300100001010</i> Bank nomi: <i>Toshkent uy</i> <i>LLS xkkl</i> MFO: <i>00014</i> INN: <i>201122919</i> <i>207267535</i> sh/h <i>1000288602742470/1204080</i> h/t _____ <i>Suvrayev maxop Toshkent</i> (g'aznachilik bo'linmasi nomi) Rahbar: _____ <i>Sp. Suvrayev</i> (F.I.Sh.) Imzosi: _____ Muhr o'rni _____
Rahbar: <u>M.R. Aaliev</u> Imzosi: _____ Muhr o'rni _____	Rahbar: _____ Imzosi: _____ Muhr o'rni _____

Yuridik maslahatchi xizmati: Menga
va qabul qilishga oid maslaha shartnoma loyihasini o'rganib chiqib, shartnomaning
majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining
shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik
Kodeksining tegishli moddalari va boshqa normativ hujjatlar talablariga rioya etilgan xolda
tuzilganligini e'tirof etib, shartnoma loyihasini o'ratilgan tartibda imzolashiga taysiya qilaman.

15

(F.I.Sh.)

(imzo)

(sana)

16

203 787

Ushbu shartnomani haqqoniyligini tasdiqlovchi mas'ul filial xodimlari

RO'YXATI

Faoliyat turi: biogener

Kadastr № biogener Davos

Kadastr №

[illegible]

Tabiiy gaz tarifi _____ sum _____ 00 tiyin

[illegible]

Kelishilgan:

Etkazib beruvchi

Rahbar: M.R.AliE
(F.I.Sh.)

Imzosi

Muhammad o'g'li

Ljrochi

(F.I.Sh.)

(imzo)

Iste' molchi

Rahbar

(F.I.Sh.)

Imzosi

Muhr o'fni

Тошкент вилояти Янгийўл шаҳар Хокимияти билан "HUDUDGAZTA'MINOT" АЖ ўртасидаги табиий газ етказиб бериш учун тузилган 2022 йил 18 январдаги. № 12-04/300-сонли шартнома

СПЕЦИФИКАЦИЯ
(2022 йил _____ ойи учун)

№	Хизмат тури	ўлчов бирл.	нархи (сўм)	хажм	сумма
1	Табиий Газ	м3	660	6818,00	4499880
2	Табиий Газ	м3	660	5303,00	3499980
3	Табиий Газ	м3			
4	Табиий Газ	м3			
5	Табиий Газ	м3			
6	Табиий Газ	м3			
7	Табиий Газ	м3			
8	Табиий Газ	м3			
9	Табиий Газ	м3			
10	Табиий Газ	м3			
11	Табиий Газ	м3			
12	Табиий Газ	м3			
	Жами			12121,00	7999860,00

Сотувчи (Етказиб берувчи)

Харидор (Ташкилот)

М.Ў



Ф.Мирзаев



М.Ў